

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

**LOGISTIKA JARAYONI - ISHLAB CHIQARISH KORXONALARINI
RIVOJLANTIRISHNINIG ASOSI**

Yuldasheva S.N.

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

Menejment kafedrası dotsenti, Buxoro sh., saidayuldasheva@mail.ru

**ПРОЦЕСС ЛОГИСТИКИ – ОСНОВА РАЗВИТИЯ ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ
ПРЕДПРИЯТИЙ**

Юлдашева С.Н.

*доцент кафедры Менеджмент Бухарского инженерно-технологического
института, г.Бухара., saidayuldasheva@mail.ru*

**THE LOGISTICS PROCESS IS THE BASIS FOR THE DEVELOPMENT OF
MANUFACTURING ENTERPRISES**

Yuldasheva S.N.

*Associate Professor of the Department of Management, Bukhara Engineering and
Technological Institute, Bukhara, saidayuldasheva@mail.ru*

Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish, raqamlashtirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishdasanoat korxonalari alohida o'rin egallaydi. [1] Hozirgi paytda xo'jalik yuritishning davlat, jamoa xo'jaliklari, aksiyadorlik jamiyatlari, qo'shma korxonalar faoliyatida mamlakatimizda chuqur o'zgarishlar, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha tomonlarini izchil isloh etish va raqamlashtirish, jamiyatimizni demokratik yangilash va modernizasiya qilish jarayonlari jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda [11].

2022yil 28 yanvarda 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidaO'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60 farmoni qabul qilindi. Taraqqiyot strategiyasida milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash bo'yicha belgilangan vazifalar doirasida quyidagi ishlarni ham bajarish qo'yildi [2]:

1. Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni - 1,6 baravar va 2030 yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSH dollaridan oshirish hamda «daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar» qatoriga kirish uchun zamin yaratish;

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

2. Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish;

3. Sanoatning yetakchi tarmoqlari va iqtisodiyotni yanada liberallashtirish hamda transformatsiya jarayonlarini yakunlash [3].

Ishlab chiqarish korxonalari faoliyatini rivojlantirish ko'p omillar qatori logistikaga ham bog'liq, logistikani qo'llashning asosiy sabablari bo'lib, korxonalarining xususiyatlari ya'ni ishlab chiqarish va mahsulot sotish xususiyatlari, korxonalarda sexlar va bo'limlar soni iste'mol qilinadigan resurslar va mahsulotlar nomenklaturasi, ular hajmi, ishlab chiqarish uzluksizligi, ishlab chiqarishning davriyligi, ishlab chiqarish jarayonlarining bir necha bosqichliligi, tugallanmagan ishlab chiqarish hajining ko'pligi, xom ashyo ta'minoti va mahsulot sotishning keng tarmoqli bozorlarning mavjudligi hisoblanadi [9]

Transport-logistika tizimini takomillashtirish ham eng dolzarb masaladir. Chunki O'zbekistonda dengizga chiqish imkoniyati cheklangani uchun mahsulotni eksport qilishda ko'plab qiyinchiliklar paydo bo'lmoqda. Shu bois, "Uzbekistan Eyrveys" va "O'zbekiston temir yo'llari" kompaniyalari tovarlarni eksport qilish bo'yicha zamonaviy logistika yo'nalishlarini yaratish masalalari ko'rib chiqildi [2] .

Logistika logistike grek so'zidan olingan bo'lib, hisoblash san'ati ma'nosini bildiradi. Amaliyotda esa logistika tizim sifatida harbiy ishlarni bajarishda harbiy qo'shinlarni moddiy resurslar bilan ta'inlashni tashkil qilishda yuzaga keldi.

Iqtisodiyotda esa logistika ilmiy yo'nalish sifatida zamonaviy korxonalarda samarali qo'llanilishini taqozo etadi. Aytib o'tilgan xususiyatlar ishlab chiqarish tizimi ichida va tashqarida oddiy oqimlarini samarali boshqarish choralarini talab qiladi. Shundan kelib chiqib, logistikaga quyidagicha ta'rif beriladi: Logistika – bu moddiy va u bilan bog'liq axborot, moliyaviy oqimlarni boshqarishdir. Logistik bilimlarni o'rganishning asosini moddiy oqimlar tashkil qiladi [7]. Axborot oqimlar esa moddiy oqimlarning ajralmas qismi hisoblanib, ularni miqdor va sifat jihatdan tavsiflaydi. Moliyaviy oqimlar esa ya'ni xarajatlar moddiy resurslardan foydalanish samaradorligini baholaydi. Shunday qilib, korxona logistikasining asosiy maqsadi bo'lib, mahsulot ishlab chiqarish davrining hamma bosqichlaridan material resurslarning samarali oqilona o'tishini ta'minlashda yaxshiroq moliyaviy natijaga erishishdan iborat. Logistika ikkita tayanch tushunchalar orqali tushuntiriladi: bular moddiy resurslar va moddiy oqimlar. Moddiy resurslar moddiy oqimlarning asosiy negizi bo'lib hisoblanadi. Omborda saqlanadigan moddiy resurslar moddiy oqim hisoblanmasdan, ular oddiy zaxiralar bo'lib hisoblanadi.

Moddiy oqimlarni boshqarish har doim xo'jalik faoliyatining muhim tomoni hisoblanib kelingan, biroq nisbatan yaqin vaqtlarda u iqtisodiy faoliyatning eng muhim vazifalaridan biri tarzidagi mavqega ega bo'ldi. Asosiy sabab iste'molchining tez o'zgaruvchi xohish - istaklariga tez moslashuvchan bo'lgan ishlab chiqarish va savdo tizimlari zaruriyatini tug'dirgan sotuvchi bozori [14] iste'mol bozoriga o'tishidir. Jahon tajribasi shuni

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

ko'rsatadiki, bugungi kunda raqobat bozorida kimki logistika sohasida layoqatli bo'lsa, yetakchilik mavqeiga ega bo'ladi.

Logistik tizim o'lchami bo'yicha makro va mikro logistikaga bo'linadi: Makrologistik tizim- sanoat savdo va transport korxonalari, mamlakat, hudud, miqyosidagi tashkilotlarni o'z ichiga olgan oddiy oqimlarni boshqarish murakkab tizimi. Mikrologistik tizim – makrologistik tizim kichik tizimchalari. Ularga ishlab chiqarish va savdo korxonalari, hududiy ishlab chiqarish komplekslari kiradi[13]. Bu tizimdagi logistika ishlab chiqarish - iqtisodiy tizimdagi infrastruktura bilan bog'liq.

Murakkab ishlab chiqarish - iqtisodiy tizim uchun logistikaning quyidagi funksional sohalari taalluqli:

1. Ta'minot logistikasi – ta'minotchilik munosabatlari asosida ishlab chiqarishni moddiy texnik ta'minotini tashkil qilish funksiyasini bajaradi.
2. Ombor logistikasi (moddiy resurslar va tayyor mahsulotni omborda saqlash, uni qadoqlash funksiyalarini amalga oshirish)
3. Zahiralar logistikasi (ishlab chiqarishni ta'minlash uchun moddiy zahiralarini rejalashtirish funksiyasi)[10]
4. Ishlab chiqarish logistikasi (moddiy resurslarni tayyor mahsulotga aylantirish jarayonida oddiy oqimni boshqarish funksiyasi)
5. Taqsimot logistikasi – tayyor mahsulotni sotishda savdo zonalar bo'yicha taqsimot kanallarini boshqarish funksiyasini bajaradi.
6. Transport logistikasi (transport turini tanlash va iste'molchilarga xizmat ko'rsatish grafigini tuzish funksiyasi)
7. Axborot logistikasi (moddiy oqimlar harakati to'g'risida axborot yig'ish, logistik jarayonlarni, buyurtmalarni qayta ishlash, zahiralarini boshqarish, talabni bashorat qilishda kompyuter texnologiyasidan foydalanish) [3].

Yuqoridagi logistikaning funksional sohalari ishlab chiqarish korxonalarining mahsulotini ishlab chiqarish jarayonidan tortib sotish jarayonigacha sifatni ta'minlashni taqozo qiladi.

Shunday qilib, logistikaning iqtisodiyotda qo'llanilishi natijasida moddiy resurslar yetkazib berishdan ko'riladigan samaradorlik keskin oshmoqda. Moddiy resurslarni [12] iste'molchiga yetkazib berish davrida ular ta'minot, ishlab chiqarish, transport, ombor va taqsimot jarayonlarning turli bo'g'inlarida bo'ladilar. Bu bo'g'inlarda moddiy oqimlar bo'yicha turli tovar operatsiyalari bajarilganligi sababli albatta sifat va miqdor o'zgarishlari ro'y beradi. Bunday hollarda moddiy oqimni rejalashtirish, hisobga olish, nazorat qilish, muvofiqlashtirish umuman uni boshqarish talab qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida.- T.:2022 yil 28yanvar, PF-60-sonli Farmoni.

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so'zi, T.; 2020 yil 24-yanvar
3. Yuldasheva S.N. Ishlab chiqarish menejmenti. Darslik:- Buxoro. "Bukhara Brilliant Cargo", 2024. – 248b.
4. Bazarov. F Logistika asoslari. O'quv-qo'llanma: –T: "Tafakkur bo'stoni", 2017. – 192 b
5. А.М.Заваков. Логистика материальных запасов и финансовых активов. М.Изд. «Питер» 2005.
6. Юлдашева С. Н. СОЦИАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ ПРЕДПРИЯТИЯ-ОСНОВА РАЗВИТИЯ БЛАГОСОСТОЯНИЯ НАРОДА //Интернаука. – 2019. – №. 9-1. – С. 86-87.
7. Юлдашева С. Н. РАЗВИТИЕ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАН И РЕФОРМЫ, НАПРАВЛЕННЫЕ НА УЛУЧШЕНИЕ ЕЁ СТРУКТУРНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ //ББК 65.0501 А 43. – 2022. – С. 337.
8. Юлдашева С. Н. ОСНОВНЫЕ ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ СОКРАЩЕНИЯ УРОВНЯ МАЛООБЕСПЕЧЕННОСТИ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ //АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ И РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ. – 2021. – С. 166-169.
9. Юлдашева С. Н. ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ КАК ОСНОВНОЙ ФАКТОР УРОВНЯ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ //Ученый XXI века. – 2017. – С. 107.
10. Юлдашева С. Н. ИҚТИСОДИЁТНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ ШАРОИТИДА САНОАТ КОРХОНАЛАРИНИНГ САМАРАДОРЛИГИ ВА УНИ ОШИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИ //УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА. – С. 105.
11. Юлдашева С. Н. БУХОРО ВИЛОЯТИДАГИ ОЗИҚ-ОВҚАТ САНОАТИ КОРХОНАЛАРИДА ИҚТИСОДИЙ САЛОҲИЯТДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ ЙЎЛЛАРИ.
12. Musaeva J. K., Elmurodov S. S., Yuldasheva S. N. ROLE OF CURRENCY RELATIONS IN THE DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF UZBEKISTAN //Бенефициар. – 2019. – №. 44. – С. 22-25.
13. Yuldasheva, S. "The Main Directions of the Organization of Production Processes at Industrial Enterprises in the Digital Economy." Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science 2.4 (2021): 189-194.
14. Raximova D., Alimova R. BIZNESDA ESG TAMOYILLARINI QOLLASH-INNOVATSION IQTISODIYOTNING MUHIM YO'NALISHLARIDAN BIRI SIFATIDA //Приоритетные направления, современные тенденции и перспективы развития финансового рынка. – 2023. – С. 362-365.